

IBN RUSHDNING E'TIQOD VA AQL UYG'UNLIGI G'OYASINING HOZIRGI DAVRDA MA'NAVYI-MA'RIFIY AHAMIYATI

Ikramova Iroda Rixsivayevna

irodasadoyi@gmail.com

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq falsafasi va madaniyati kafedrası

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sharq falsafasida ratsionalizmga asoslangan murakkab yo'nalish mashshoiyyuna yo'nalishining ko'zga ko'ringan vakili Ibn Rushdning din va falsafa borasidagi qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, bu muammoni bugungi kunda Uchinchi renessansni qurishda jamiyatning ma'naviy va ma'rifiy sohasidagi ahamiyati yoritib berilgan.

***Kalit so'zlar:** Ibn Rushd, mashshoiyyuna, aql, e'tiqod, din va falsafa uyg'unligi, "Ikki haqiqat".*

ABSTRACT

This article analyzes the views on religion and philosophy of Ibn Rushd, a prominent representative of the Mashshaiyyuna direction, a complex direction based on rationalism in Eastern philosophy. Also, the significance of this problem in the spiritual and educational sphere of society in the construction of the Third Renaissance today is highlighted.

***Key words:** Ibn Rushd, mashshaiyyuna, harmony of reason, faith, religion and philosophy, "Two truths".*

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida mamlakatimizda ilm, aql-zakovat hamda insonlarning qadriyatiga aylangan islom dini uyg'unligiga murojaat qilinmoqda. Diniylik va dunyoviylik mutanosibligida o'z diniga e'tiqod qilgan holda globallashuv jarayonlariga o'z aql-zakovati bilan kirib bora olish tushunilmoqda.

Aql va e'tiqod o'rtasidagi munosabatlar muammosi falsafada eng dolzarb masala bo'lib kelgan va hozir ham shunday bo'lib qolmoqda. U insonlar dunyoqarashining mohiyatiga, ularning mavjudligining ekzistensial asosiga ta'luqli. Bu ikkisining har biri insonlarning ongi va qalbini zabt etishga, yerdagi va boshqa olamlardagi eng yaxshi turmush tarzini tushuntirishga, baxtli hayot yo'lini ko'rsatishga harakat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ibn Rushdning falsafiy qarashlari, xususan, aql va din haqida, “Ikki haqiqat” haqidagi qarashlari rus olimlari, Yevropa olimlari tadqiqotlari natijasida keng oʻrganilgan. Mazkur maqolada Ibn Rushdning din va falsafa mutanosibligi haqidagi qarashlarining bugungi kundagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot olib borish mobaynida dialektik, tizimlashtirish, germevistik va sinergetik metodlardan hamda toʻldiruvchanlik, verifikatsiya, tarixiylik, vorisiylik tamoyillaridan ham foydalanilgan.

NATIJALAR

Borliq, xususan, insonning mohiyati haqida fikr bildirish borliq va shaxs oʻrtasidagi munosabat masalasini tabiiy ravishda keltirib chiqaradi. Bunda inson borligʻiga ekzistensial yondashuv muhim sanaladi. “Ikki haqiqat” taʼlimoti nafaqat bugungi kundagi ijtimoiy, madaniy, siyosiy toʻqnashuvlarning oldini olishda dolzarb sanaladi. U oʻtmishdan zamonaviy dunyoga koʻchishi davomida turli xil qarashlar, turli xil tendensiyalarni, turli xil yondashuvlarni koʻrib oʻtganligini ham inobatga olinadi. Din, eʼtiqod va falsafa, aql masalasi bugungi globallashtirish jarayonlaridagina emas, balki tarixan oʻzining dolzarbligi, nozik masala ekanligi bilan ajralib turgan. U inson ichki dunyosi, ishonchi bilan aql-zakovati natijalarini oʻzida mujassam etgan boʻlib, bunda har bir shaxsning oʻz pozitsiyasi mavjud boʻladi.

MUHOKAMA

Eʼtiqod zamonaviy ilmiy, postmodern va globalistik davrda, “anʼanaviy” deb taʼrif berilgan barcha qadriyatlar universallashtirilib, tenglashtirilganda juda dolzarb hisoblanadi. Eʼtiqodsiz madaniyatning oʻzi ham mavjud boʻlishi mumkin emas, deb yozgan edi P.Florenskiy. Darhaqiqat, eʼtiqodsiz inson ongi ham boʻlishi mumkin emas, mazmun va axloq ham boʻlmaydi, umuman inson hayotining maʼnosi ham boʻlishi mumkin emas.

“Fyodor Dostoyevskiy va Erix Fromm barcha insonlar imonli va ular faqat eʼtiqodining “mavzusi” bilan farq qiladi, deb taʼkidlaganda shuni nazarda tutgan boʻlishlari haqiqatga yaqin. Eʼtiqod dunyoqarash va gnoseologiya nuqtai nazar jihatidan zarur hisoblanadi. Chunki inson bilimi har doim ham barcha narsalarni, hodisalarni tushuntirish uchun yetarli boʻlmaydi. Eʼtiqod esa uni oʻrnini toʻldira olish qobiliyatiga ega. Eʼtiqodsiz dunyoqarash mukammal boʻlolmaydi yoki zamonaviy “maʼrifatparvar” inson har xil xurofotlarga taslim boʻladi. Shu maʼnoda, ular taʼkidlaganidek, dahriylik mumkin emas, chunki inson ishongan narsa u uchun har doim mutlaq boʻlib harakat qiladi” [2;75]. Kim uchundir u Xudo, yana kim uchundir u materiya deb atashimiz mumkin. Tarixdan guvohi boʻlganmizki, insonlar maʼlum bir idealni ham, maʼlum bir ijtimoiy tizimni ham ilohiylashtirib, unga eʼtiqod qilgan.

Transsendent tamoyilga ishonish butparastlikning barcha turlarini yo‘q qiladi, chunki hech qanday yakuniy narsa topinishga loyiq emas, aynan shu e‘tiqod barcha dunyo dinlari va tegishli falsafaning asosini tashkil qiladi. Darhaqiqat, xurofotdan farqli ravishda, e‘tiqod spekulativdir. U nimagadir “qarshi” bo‘lmaydi, balki o‘ta ilmiy bo‘lib, fanni o‘z ichiga olishi mumkin, biroq uni inkor etmaydi” [2;76]. E‘tiqod erkinlik tarafdori va shuning uchun insonning javobgarligini ham e‘tirof etadi, ya‘ni bunda insonning axloqiy tabiatini ham belgilaydi. Xurofotlar esa ko‘p hollarda ilmga qarshi chiqib, ilmiy dalillarga mos kelmaydi, insonning erkinligini yo‘q qilishga intiladi, ya‘ni uni tashqi kuchlarga qaram qiladi. E‘tiqod falsafiy mushohada bilan to‘qnash keladi. Aql va bilim esa hayotning ma‘nosini izlab, topishga intiladi. Bu ruhiy bilimning bevosita asosiy va barqaror usullaridan biri sanaladi.

Mazkur jarayonni biz turli madaniyatlarda, turli dinlarda kuzatamiz. Xususan, islom dinida u vujudga kelishidan boshlab ilmga e‘tibor kuchliligini bilamiz. Buni biz islom dinining payg‘ambari Muhammad (s.a.v.) fikrlarida ko‘p uchratamiz. Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning “Ilmni xatto Xitoyda bo‘lsa ham o‘rgan” hadislarini misol qilib olishimiz mumkin. Natijada ilk islom o‘zining diniy bag‘rikengligi bilan ajralib turdi.

Amerikalik sharqshunos olim F.Rouzental “Bilim tantanasi” asarida shunday deydi: “Ular rasmiy ilmni rad etmaydilar... ammo unga alternativ bo‘lgan ilm avvalgisidan mohiyati kam emasligini isbotlashni istaydilar. Bu davr ilm-fan davri edi... Qur‘ondan boshlab to she‘riyatgacha hammasi maxsus ilmiy fanlar metodikasi bilan sug‘orilgan edi” [3;215]. Ilmiy mushohada va g‘oyalar, qarashlar va ta‘limotlar kurashi islom madaniyati, falsafasining rivojlantiruvchi kuchi bo‘ldi. O‘zaro xilma-xil sohalar ekanligiga qaramasdan aql va bilim prinsipial jihatdan e‘tiqod va imondan ajratilmaslikka harakat qilindi. Bu esa o‘z navbatida islom sivilizatsiyasining gullab-yashnashiga katta xissa qo‘shdi.

Albatta, O‘rta asrlarda bu metodika, metodologiya deb yuritilmagan bo‘lsa ham, lekin aqlga bo‘lgan e‘tibor natijasida barcha sohalarining metodologiyasi ishlab chiqilib bo‘lingan edi. O‘rta asarlarda epistemologiya, ratsional ta‘limotlarning metodologik jihatlari ko‘rib chiqildi. Din va falsafa uyg‘unligiga asoslangan “Ikki haqiqat” konsepsiyasining metodologik jihatlari yoritib bergan Ibn Rushd ijodida falsafa hamda aql alohida tahlil qilinib, uning mohiyati din va e‘tiqod tushunchalari bilan uzviy aloqadorlikda ochib beriladi.

“Ibn Rushd ijodida aql alohida tahlil qilinib uning mohiyati din va e‘tiqod tushunchalari bilan uzviy aloqadorlikda ochib beriladi. Bugungi global ma‘naviy tahdidlar avj olgan zaminda Ibn Rushd dunyoqarashining mazkur jihati, yanada muhim ahamiyat kasb etadi, ayniqsa dunyoviylikni dahriylik sifatida talqin

qilayotgan diniy ekstremistik oqimlarga qarshi kurashda muhim g'oyaviy asos vazifasini o'taydi" [1;247]. Ibn Rushd o'zining "Fasl al-maqāl" asarida din va falsafa haqida so'z yuritshining sababi islom dini shu mintaqa xalqlarining asosiy e'tiqodiga aylanib, ularning butun hayoti mohiyatini belgilab berar edi. Shu sababli xalq uchun diniy e'tiqoddan boshqa e'tiqodga ehtiyoj yo'qdek ko'rinardi. Ibn Rushddan avval faoliyat olib borgan faylasuflar ham mavjud diniy tizimga falsafani olib kirishni tarafdori bo'lganlar. Bu biz yuqorida ko'rib o'tgandek, nafaqat islomda, balki yahudiylik va nasroniylikda ham xuddi shunday maqsad bilan harakat qilganlar. Yangi va eng yangi davrga kelib Yevropada esa "Ikki haqiqat" masalasida e'tiqod, imon bilan aql, ilm-fan, bilim muammolari tahlil qilindi. E'tiqodning ham, bilimning ham turli ko'rinishlari tadqiq etildi.

Bugun globallashuv jarayonlarida ma'naviy tahdidlar kuchayib borayotgan makon va zamonda Ibn Rushd dunyoqarashining mazkur jihati yanada ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, dunyoviylikni dahriylik sifatida ko'rayotgan diniy ekstrimistik oqimlarga qarshi kurashda hamda bugungi kunda mamlakatimizda kuchayib borayotgan mutaassiblini oldini olishda nazariy asos bo'ladi.

Bugungi globallashuv sharoitida bir tomondan siyosiy yetuk yoshlarni tarbiyalash, ikkinchi tomondan esa ular ongi shuurida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni saqlab qolish, ya'ni aqlli, ruhan va ma'nau sog'lom, ijtimoiy faol avlodni kamol toptirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli mamlakatimizda diniylik va dunyoviylik konvergentsiyasi masalasiga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada ko'plab tadqiqotlar, amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tadqiqotlarning ko'pchiligi bilan tanishib, ular bu uyg'unlikning nazariy va amaliy asoslarini bugungi kun bilan bog'layotganliklarini guvohi bo'linadi. Xatto, ayrim tadqiqotlarda musulmon dunyosida bu masalada shu davrgacha murosas qiluvchi maxsus tadqiqot bo'lmaganligini e'tirof etuvchi zamonaviy tadqiqotlar ham uchraydi.

O'zbekiston xalqining milliy ongining konseptual asoslaridan biri bu din, ya'ni islom dini hisoblanadi. Mamlakatimiz aholisining katta qismi islom diniga e'tiqod qilganligi, yillar davomida bu din xalqning qon-qoniga singib ketganligi sababli yoshlarni to'g'ri tarbiyalashda ham islom dini, e'tiqodi yetakchilik qiladi. Din serqirra va sermazmun ijtimoiy hodisa bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham e'tiqod, ham axloq va ham huquq bo'lgan qadriyat sanaladi. Shu bilan birga bugungi globallashuv jarayonida O'zbekiston yoshlarining hayotda o'z o'rniga ega bo'lishiga ularning aql-zakovati, bilimi mustahkamligi zarur hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shuvchi barkamol shaxsni tarbiyalashda zarur bo'lgan ma'naviy va axloqiy

fazilatlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Zero, ma’naviy tarbiyaning zamini bilim bo‘lib, bilim borliqni ideal obrazi sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA

Ibn Rushd falsafasi aynan mana shu ruhiy kontekstda shakllangan. U ilmning o‘zi ilohiy ekanligini, hamda aql hamisha zarur ekanligini isbotlaydi. Chunki ilm doimo oqilona e’tiqod bilan birgalikda olib borilsa, jamiyatda inson hayotini tartibga solish imkonini beradi. Bu har qanday kasb, har bir inson intilishlari uchun to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatadi. Ibn Rushd qarashlaridagi din va aqlni uyg‘unlashtirish ta’limoti arab-musulmon dunyosini o‘zida qolib ketmadi, bu ta’limot epistemologiyaga asoslanganligi bois Ibn Rushddan keyingi faylasuflar dunyoqarashiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Bu nafaqat islom dini doirasida, balki ma’lum davr bu ta’limot unutilgan nasroniylik va yahudiylik dinlariga ham qayta ta’sir o‘tkazdi. To‘g‘ri ularning barchalari bu uyg‘unlikni tan olmasalarda, biroq bu ikki sohani yonma-yon qo‘yishga muyassar bo‘ldilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Ikramova, I. R. (2021). IBN RUSHD FALSAFASIDA "MANGU AQL" TUSHUNCHASINING TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 2), 243-248.
2. Нижников С. А. Вера и знание: проблемы онтологии и гносеологии в историко-философском контексте // Социум и власть. – М., 2018. № 2 (70). – С. 76.
3. Роузентал Ф. Торжество знания. Концепция знания в средневековом исламе / Пер. с англ. С.А. Хомутова. – М.: Наука, 1978. – С. 215.
4. Jurayev, S. S. O. G. L. (2023). ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA “INOYAT”(العناية) TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI. *International scientific journal of Biruni*, 2(1), 43-47.